

"O'zkimyosanoat" AJ va "Air Products and chemicals" kompaniyasi rahbariyatlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi

// 04.04.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-air-products-and-chemicals-kompaniyasi->



Bugun "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati va "Air Products and chemicals" kompaniyasining bosh ijrochi direktori Eduardo Menezes ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, sanoatda gazlardan samarali foydalanish imkoniyatlari yuzasidan fikr almashildi.

Tomonlar qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari, kimyo tarmog'ida barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalarini muhokama qildilar.



Birgalikdagi sa'y-harakatlar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga, balki sohada innovatsion yechimlarni rivojlantirishga ham hissa qo'shishiga ishonch bildirdilar.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati